

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA RIVOJLANISH SOHALARINING O'ZARO INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Yigitaliyeva Gullola Mirobil qizi

*Qo'qon Davlat Universiteti Maktabgacha
ta'lim mutaxassisligi 2 – bosqich magistranti.*

E-mail: gullolayigitaliyeva397@gmail.com

Аннотация

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bolalar rivojlanish sohalarini o'zaro integratsiyalash asosida tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Rivojlanishning jismoniy, ijtimoiy-emotsional, nutqiy, bilish hamda ijodiy-estetik yo'nalishlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o'rni batafsil yoritilgan. Integrativ ta'lim modeli asosida yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonining bolalar shaxsini har tomonlama kamol toptirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, rivojlanish yo'nalishlari, integratsiya, innovatsion pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация

В статье анализируются вопросы организации направлений развития детей в системе дошкольного образования на основе их взаимной интеграции. Раскрывается роль инновационных педагогических подходов в обеспечении гармоничного единства физического, социально-эмоционального, речевого, познавательного и творчески-эстетического развития. Показаны возможности образовательного процесса, построенного на основе интегративной модели, в обеспечении всестороннего развития личности ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, направления развития, интеграция, инновационные подходы, компетентностное обучение, педагогические технологии.

Annotation

The article examines the organization of children's developmental areas in preschool education through their mutual integration. It highlights the role of innovative pedagogical approaches in ensuring the harmonious development of physical, socio-emotional, speech, cognitive, and creative-aesthetic domains. The potential of an educational process based on an integrative model for fostering the comprehensive development of children's personalities is also revealed.

Keywords: preschool education, developmental domains, integration, innovative approaches, competency-based education, pedagogical technologies.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida maktabgacha ta’lim bosqichi alohida strategik va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan ushbu bosqichda bolaning shaxsiy rivojlanishining poydevori yaratiladi, uning dunyoqarashi shakllana boshlaydi, kognitiv jarayonlar faollashadi hamda ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni kechadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning nutqiy, bilish, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishi keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatining muhim omili sifatida namoyon bo’ladi. Shu bois, maktabgacha ta’lim jarayonini ilmiy asoslangan, tizimli va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan holda tashkil etish bugungi pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi¹. So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar, ta’lim mazmunini yangilash, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bolalarning rivojlanish sohalarini o‘zaro uyg‘un va integratsiyalashgan holda rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Biroq amaliyotda ayrim hollarda rivojlanish sohalarini alohida-alohida tashkil etish holatlari uchrab, bu bolalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining yaxlit tizimda shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Natijada ta’lim jarayonining uzviyligi va samaradorligi pasayadi.

Rivojlanish sohalarini integratsiyalashgan holda tashkil etish bolalarning jismoniy, kognitiv, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishini o‘zaro bog‘liq tarzda ta’minlash imkonini beradi. Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi bolaning atrof-muhitni yaxlit holda idrok etishiga, turli faoliyat turlari orqali o‘z tajribasini boyitishiga hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv pedagogdan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, innovatsion tafakkur, ta’lim jarayonini puxta rejalashtirish va loyihalash ko‘nikmalarini talab etadi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharxi (tahlili “Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining ‘Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida’gi Qonuni² hamda PQ4312-son qarorida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan³. G.M. Nazirova tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan⁴. M.F.

¹ Atoeva M. F. Integratsiyalashgan ta’lim. – Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, № 9, 106-bet.

² O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonuni, 16.12.2019.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarori, 08.05.2019.

⁴ G. M. Nazirova. *Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiyalar.* – Toshkent, 2021.

Atoeva integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslarini tahlil qilgan bo'lsa⁵, M.K. Jabborova va M.I. Bo'ronova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrativ ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llarini tadqiq etganlar. Bu olimlar va tadqiqotchilar o'z izlanishlarida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion pedagogik metodlarni joriy etishga qaratilgan bir qancha ilmiy va amaliy masalalarni o'rganagan. Ularning ishlaridan maktabgacha ta'limning sifatini oshirish foydalanish mumkin.

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqot doirasida diagnostika nafaqat nazorat vositasi, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, ularning individual ehtiyojlarini aniqlovchi va pedagogik jarayonni moslashtiruvchi mexanizm sifatida qaraldi. Diagnostik faoliyat orqali bolaning bilish faolligi, nutqiy rivojlanishi, ijtimoiy-emotsional holati, ijodiy salohiyati hamda umumiy shaxsiy xususiyatlari kompleks tarzda o'rganildi. Tajriba-sinov ishlarida qo'llanilgan diagnostik yondashuv quyidagi pedagogik va psixologik nazariyalarga tayandi:

- L.S. Vigotskiyning **yaqin rivojlanish zonasi** nazariyasi;
- A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteynlarning **faoliyat nazariyasi**; -J. Piajening **kognitiv rivojlanish bosqichlari** konsepsiyasi;
- maktabgacha ta'limda **integratsiyalashgan yondashuv** tamoyillari.

Mazkur nazariy asoslar diagnostik jarayonni bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tashkil etish, ularning imkoniyatlarini to'liq ochib berish hamda rivojlanish istiqbollari aniqlash imkonini berdi. Tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan diagnostik metodlar quyidagi metodologik tamoyillarga asoslandi:

Komplekslik tamoyili – bolalar rivojlanishi alohida ko'rsatkichlar orqali emas, balki rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi va integratsiyasi asosida baholandi. Bu yondashuv bolaning shaxs sifatida yaxlit rivojlanishini aniqlash imkonini berdi.

Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili – har bir bolaning individual rivojlanish sur'ati, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari hisobga olindi. Diagnostika jarayonida bolalar o'zini erkin his qilishi va tabiiy muhitda faoliyat yuritishiga sharoit yaratildi.

Faoliyatga asoslanganlik tamoyili – bolaning rivojlanishi uning real faoliyati jarayonida, ya'ni o'yin, muloqot, ijodiy mashg'ulotlar orqali aniqlashtirildi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili – diagnostika tayyorlov, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda ketma-ket amalga oshirildi, bu esa rivojlanish dinamikasini aniq ko'rsatib berdi.

Kuzatuv metodi tajriba-sinov ishlarida asosiy diagnostik usullardan biri sifatida tanlandi. Ushbu metod bolaning kundalik hayoti va faoliyati jarayonida uning tabiiy xulq-atvorini o'rganish imkonini beradi.

⁵ M. F. Atoeva. *Integratsiyalashgan ta'lim*. – Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, №9.

Kuzatuvning tashkil etilish shakllari:

- rejalashtirilgan va tizimli kuzatuv;
- erkin faoliyat jarayonidagi kuzatuv;
- maqsadli kuzatuv (aniq ko‘rsatkichlarga yo‘naltirilgan).

NATIJALAR. Tadqiqot davomida maktabgacha ta’lim jarayonida rivojlanish sohalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning samaradorligi aniqlandi. Integrativ faoliyatlar bolalarning nutqiy, kognitiv, jismoniy, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning muloqot qilish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlash hamda kreativ yondashuvni namoyon etish ko‘nikmalari rivojlandi. Olingan natijalar integratsiyalashgan ta’lim faoliyatlari bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

MUNOZARA. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’limda rivojlanish sohalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning samarali ekanligini tasdiqladi. Integrativ yondashuv bolalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni kompleks ravishda shakllantirish imkonini yaratadi. Shuningdek, bunday yondashuv bolalarning mustaqil faoliyat yuritishi, ijodiy fikrlashi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar integratsiyalashgan ta’limni maktabgacha ta’lim amaliyotida keng qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalariga asosan, quyidagi xulosalarga kelindi:

Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta’lim jarayonida rivojlanish sohalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning pedagogik amaliyot uchun samaradorligi asoslab berildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim jarayonida rivojlanish sohalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlashga innovatsion yondashuvlardan foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish hamda ularni maktab ta’limiga puxta tayyorlashning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonuni, 16.12.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarori, 08.05.2019.
3. G. M. Nazirova. *Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiyalar.* – Toshkent, 2021.
4. M. F. Atoeva. *Integratsiyalashgan ta’lim.* – Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, №9.

5. Caiman, C., & Jakobson, B. (2022). Preschool teaching management for creative processes in authentic child-initiated contexts. *Early Childhood Education Journal*, 50(4), 393–407
6. Султанова, Н. (2023). Технологии моделирования воспитательного процесса в ДОУ. *Международный научный журнал “Педагогическая практика”*, 4(9), 66–70.
7. Institute of Medicine, & National Research Council. Transforming the workforce for children birth through age 8: A unifying foundation (L. Allen & B. B. Kelly, Eds.). National Academies Press. 2015.
8. Jabborova M.K., & Bo‘ronova M.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilariga integrativ ta’lim-tarbiya berish jarayonini takomillashtirish. – *Journal of Innovations in Scientific and Educational Research*, 2023, 2(16), 595
9. Umarova, D.A., Asqarova, S.A.A. Integratsiyalashgan dasturlar. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning samaradorligi. *Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*, 2(9), 156, 2025. <https://phoenixpublication.net/>